

"KAPITALBANK"
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
2024 yil 29 mart kuni Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishini e'lon qiladi.

Hurmatli aksiyadorlar!

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi quyidagi manzilda bo'lib o'tadi: Toshkent sh., Maxtumquli ko'chasi, 1.

“Kapitalbank” ATB Yashnobod filiali binosida.

E-mail: info@kapitalbank.uz, veb-sayt: www.kapitalbank.uz.

Ro'yxatga olish soat 10:30.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining boshlanishi soati-11:00.

Navbatdan tashqari umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan ATB “Kapitalbank” aksiyadorlari ro'yxati bankning 2024 yil 25 mart holatiga ko'ra aksiyadorlar reestriga muvofiq tuzilgan.

Kun tartibi:

1. “Kapitalbank” ATB umumiy maqsadli zaxira fondini ko'paytirish to'g'risida.
2. Aloqador shaxs bilan bitimni tasdiqlash to'g'risida.

Izoh: aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishidagi aksiyador vakili yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida va vakil to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi yoki nomi, yashash manzili, joyi, pasport ma'lumotlari) kor'satgan holda ish yuritadi. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.